

## "MEZON UL AVZON" DAGI QÖSHIQ NOMLARI

*Termiz davlat universiteti Özbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi  
Shonazarova Dilfuza Xurshidovna*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub "Mezon ul avzon" asari qalamga tortiladi. Asardagi qöshiq nomlari ritmik birliklar tilshunoslik tarixi nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

**Kalit sózlar:** qöshiq nomlari, ritmik tahlil, qofiya, shakl, mazmun.

### Kirish

"Mezon ul-avzon" muqaddima, asosiy qism va kichik xotimadan iborat. Muqaddimada Allohga hamd aytilgach, Sulton Husayn Boyqaroning ushbu asarni yozishga ilhomlantirganligi haqida so'z boradi. Unda aytilishicha, Husayn Boyqaro Amir Xusrav Dehlaviyning 18 ming baytdan iborat g'azaliyotini yig'dirib, bir to'plam holiga keltiradi. Xusrav Dehlaviy she'rlarining ko'pi murakkab bahr va vaznlarda bo'lib, ularni aniqlashda hatto ba'zi shoirlar ham ojizlik qilar edilar. Husayn Boyqaroning topshirig'i bilan aruzshunoslari Xusrav Dehlaviyning har bir she'ri ustiga shu she'rning vaznnini yozib chiqadilar. Shundan so'ng devon tuzishda har bir she'rning vaznnini qayd etib qo'yish odat tusiga kiradi. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniyl" kulliyoti ham shu yo'sinda tartib beriladi. "Mezon ul-avzon"da 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ham ma'lumot keltirilgan bo'lib, ularning aksariyati turkiy xalq og'zaki ijodiga mansubdir. Navoiy ularning xalq orasida tarqalgan nomlaridan foydalanadi, nomi yo'qlarini esa aruzdagagi vaznlardan qaysi biriga mos bo'lsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Ushbu poetik shakllar quyidagilardir: o'n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo'shiq (1), qo'shiq (2), chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy. "Mezon ul-avzon" turkiy aruzshunoslikka qo'shilgan munosib hissa bo'lib, o'z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Xondamir "Makorim ul-axloq"da risolaga yuqori baho berib, Navoiyning iste'dodi va badiiy mahoratini ko'rsatib beruvchi asar ekanligini, avvalgi risolalarda keltirilmagan doiralarni kiritganligini uning aruzshunoslikdagi eng katta xizmati sifatida e'tirof etadi. "Mezon ul-avzon" o'zidan keyin turkiy tilda Boburning "Risolai aruz" asari yaratilishi uchun zamin hozirladi, XIX asrda Furqatning "Ilmi she'rning qoidai avzonini bayoni" dastxatiga asos bo'ldi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari 1492–1493-yillarda yaratilgan [3]. Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloga" asari bilan tanish bo'lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarni turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta'kidlaydi, xususan "g'araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu

erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi' bo'lubdur, anga zobitaye va qonune yo'q erkondur..." deb yozarkan, turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo'qligini aytib o'tadi.

### **Asosiy qism**

Alisher Navoiy muqaddimada o'zidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning "Kitob ul-ayn", Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam", Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or", Abdurahmon Jomiyning "Risolai aruz" asarlariga to'xtalib o'tib, ularda mavjud bo'limgan ba'zi qoida, doira va vaznlarni o'z asarida keltirib o'tishini aytadi. Navoiy vaznlarga ta'rif berar ekan, unga ko'proq misollarni o'z g'azaliyotidan keltiradi. Xususan, hazaji musammani solim vaznni ta'riflashda Zihi mulkungning o'n sekiz mingidin bir kelib olam, Bu olam ichra bir uyluk qulung Havvo bilan Odam, Rajazi musammani matviyi maxbun vazni bilan bog'liq o'rinda

Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay,

Vah, g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay,

Mutaqoribi musammani mahzuf vaznida

Ochildi chaman, gul'uzorim qani, Sihi sarv bo'yluq nigorim qani?

kabi baytlarni keltiradiki, bu holat Navoiy keltirgan vaznlar turkiy adabiyot uchun shunchaki tajriba bo'lmay, balki ularda badiiyat jihatdan yuksak g'azallar yozish mumkinligini ko'rsatadi. "Mezon ul-avzon"da 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ham ma'lumot keltirilgan bo'lib, ularning aksariyati turkiy xalq og'zaki ijodiga mansubdir. Navoiy ularning xalq orasida tarqalgan nomlaridan foydalanadi, nomi yo'qlarini esa aruzdagagi vaznlardan qaysi biriga mos bo'lsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Ushbu poetik shakllar quyidagilardir: o'n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo'shiq (1), qo'shiq (2), chinga, muhabbatnama, mustazod, aruzvoriy, turkiy. "Mezon ul-avzon" turkiy aruzshunoslikka qo'shilgan munosib hissa bo'lib, o'z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Xondamir "Makorim ul-axloq"da risolaga yuqori baho berib, Navoiyning iste'dodi va badiiy mahoratini ko'rsatib beruvchi asar ekanligini, avvalgi risolalarda keltirilmagan doiralarni kiritganligini uning aruzshunoslikdagi eng katta xizmati sifatida e'tirof etadi. "Mezon ul-avzon" o'zidan keyin turkiy tilda Boburning "Risolai aruz" asari yaratilishi uchun zamin hozirladi, XIX asrda Furqatning "Ilmi she'rning qoidai avzonini bayoni" dastxatiga asos bo'ldi. Shuningdek, navogo, navozanda, navoiy, navosoz sozlarining ham asosi "navo" bolib, ularning barchasi "kuychi, cholguchi; ashulachi; allachi" kabi ma'nolarni beradi. Yana nagma sozi ham birinchi ma'nosida "ohang, kuy, maqom", ikkinchi ma'nosи bilan "sayrash" sozlariga teng keladi. 6 Masalan: Sozda Navoiy ne desang, chin degil,

Rost navo nagmaga tahsin degil. 7

Navoiy davrida "nagmayi rexta" nomli maxsus bir kuy bolgan:

Muganniy, tuzat nagmayi rexta,

Ani qil ozing birla omexta. 8

Nagma sozi ham nagmazan, nagmakash, nagmakor, nagmapardoz, nagmasaroy, nagmasoz kabi shakllarda kelib, “kuylovchi, xonanda, sozanda, ashula aytuvchi, cholguchi” ma’nolarini beradi.Yana tarona sozi ham quyidagi ma’nolarda keladi:1. Ashula, ohang, maqom; 2. Aruz ilmida ruboiy vaznining nomi; Tarona surmak–kuylab oqimoq; sozlamoq; Tarona tuzmak, tarona chekmak–ashula aytmoq, xonish qilmoq, kuylamoq.Masalan:

Istasangkim, nagmang ichra kop xaloyiq olmagay,

Ul ikavdin kop, vale mendin tarone oz tuz.Ushu sozlarning ma’nodoshlaridan yana biri, surud bolib, bu soz Navoiy ijodida: ashula, qoshiq, kuylash, musiqa, shuningdek, surud tortmoq–kuylamoq; surud yasamoq–ashula qilmoq, kuya solmoq kabi mano kolamini kasb etadi.Masalan: Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,

Dilbarimdin nagma soz etsang, surudi noz tuz.Bu soz surud chekmak shaklida kelib, ashula aytmoq, kuylamoq ma’nolarini beradi:Subh bolgoch yana surud chekib,

Nagma birla navoyi rud chekib.

Bu sozlarga ma’no jihatdan teng keluvchi yana bir soz yir bolib, “ashula, qoshiq, jir” ma’nolarini beradi va yirlamaq, yirlaguchi, yirov tarzida soz yasovchi qoshimchalarni ham qabul qiladi. Lugatda har uch sozning ham izohi berilgan: yirlamoq–jirlamoq, ashula qilmoq; yirlaguchi–jirlovchi, ashula qiluvchi, hikoyachi; yirov–jirov, baxshi, doston aytuvchi, hikoya aytuvchi; ashulachi.Demak, yir soziga faol qoshimcha -la qoshilib, otdan fe’l yasalgan, song hosil bolgan yirla soziga -guvchi sifatdosh shakli yasovchi qo’shimcha qo’shilgan. Ma’lumki, kopgina kasb otlari asli sifatdosh hisoblanib, yirlaguvchi so’zi ham shular jumlasidandir. Ayni shu sozga ma’nodosh hisoblangan yirov esa otdan yasalgan otdir. Umuman, yir va undan yasalgan sozlar xalq kuy-qoshiqlari uchun qo’llanilgan atamalardir: Ey yirov, sen ham eshikni korguz,

Yo togon birla ulug yirni tuz.

Yo togonchi degay oturgach un,

Sen qadah ol-u toquz qatla yukun.

Yuqoridagi so’zlarning yana bir ma’nodoshi qo’shiq sozidir.Ammo bu so’zning asosini tashkil etuvchi qo’sh sozi qaysi ma’nodan kelib chiqqanini belgilashda biroz ehtiyyotkorlik lozim. Navoiy va undan oldingi davr turkiysida “qo’shuq” sozi “ashula” manosidan sal yiroq bolgan. Tadqiqotlarga ko’ra, qo’sh so’zi eski tilimizda omonim so’z bo’lgan va quyidagi ma’nolarni anglatgan:1. Ikki narsani bir-biriga aralashtirmoq yoki ulamoq.2. To’qimoq (she’rga nisbatan).3. Omoch, hokiz .Qo’shiq sozi “qo’sh”ning ikkinchi ma’nosи “to’qimoq”dan yasalgan, “omoch”dan emas. Tilimizda -k, -q qo’shimchalarining fe’ldan (otdan emas) ot yasashi bunga yana bir isbot bola oladi. “Devoni lugoti turk”da qo’shuq–to’qilgan narsa, ya’ni she’r ma’nosini bildirgan. “Hayrat ul-abror”dan olingen quyidagi bayt ham shu izohga yaqin:

Anglamayin sozda tuyuq bahrini, Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini. Shuningdek, "Mezon ul-avzon"da Navoiy quyidagilarni yozadi: "Yana qoshuq durkim, argushtak usulida shoye'dur va ba'zi advor kutubida ul usul zikr bolubtur va ul surud a'borning teva surar hudilar vazni bila madidiy musammani solimda voqe' bolur, aning asli bu navdurkim, bayt: Vahki ul oy hasrati dard-u dogi furqati, Ham erur jonimga ot, ham hayotim ofati. Foilotun foilun Foilotun foilun". Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramali musammani mahzuf vazniga elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tabliq benazir yigitlar garib nagomat va alhon bila ajab tasarruflar qilib, sulton sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig va xush oyandaligi vasfqa sigmas va ta'sir va raboyandaligi sifatqa rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidur va bu ham ul hazratning masihoso anfosi natoijidin istihshodga kelturmak munosibroq erdi, andoqkim, bayt: Sabzai xatting savodi lali xandon ustina, Xizr goyo soya solmish obi hayvon ustina." Foilotun foilun foilotun foilun. Demak, Navoiy davrida "qo'shuq" nomli alohida she'riy janr bolib, unda musiqiylik yuqori darajada bo'lganligidan muganniylar ham bu qo'shuqlarga kuy bog'lashgan. Xulosa shuki, qo'shuqnинг "she'r" ma'nosidan "ashula" ma'nosiga qarab ketishi ayni shu jarayondan boshlangan. Kuy, qo'shiq ma'nosini anglatuvchi yana bir so'z chingadir. "Mezonul-avzon"da keltirilishicha, chinga zufof (arabcha soz bolib zifaf va zufof kabi talaffuz etiladi, manosi "nikoh to'yi") va qiz uzatish marosimlarida aytilgan. Bu jihatdan u hozirgi "yor-yor"ga to'g'ri keladi. Navoiyning uqtirishcha, chinganing ikki turi bolib, birinchisi hech qaysi vaznga teng kelmaydi. Ikkinci turi esa munsarihi matviyi mavquf bahriga togri keladi va bu qo'shiqqa yor-yor so'zini radif ornida keltiradilar: Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor

Kim damidin tushdi ot jonim aro, yor-yor. Muftailun foilon muftailun foilon. Shoirning ayrim gazallarida "ovoz" sozi ham kuy manosiniberadi. Masalan:

Ey muganniy, chun nihon rozin bilursen soz tuz,

Tortibon munglug navo sozing bila ovoz tuz. Ushbu baytda ovoz tuzmoq matndan kelib chiqib "kuylamoq, qoshiq aytmoq" manolarida kelgan. Navoiy ijodida ayalgu sozi quyidagi manolarda kelgan. 1. Musiqa asboblaridan biri: Sovururda doston javrin zaxm ichra darj etib,

Do'stlar bedod-u zulmin ham, ayalgu kelturung. 2. O'lan, ashula, alla, kuy, ohang tasirli qoshiq: Holimga hajr bazmi aro tortsam surud, Bor navha maddi telba konglumning ayalgusi. Shoir asarlarida shu ma'noda keluvchi yana bir soz ohangdir. Bu soz ayni paytda shakldosh bolib, quyidagi ma'nolarni beradi: I. 1. Qasd, niyat, istak, intilish. 2. Boshlash. 3. Yonalish. II. Ravish, tarz, oxshash, monand, kabi: Oina ohang - oyna monand, oina kabi. III. kuy, ohang; ohangi rost - rost ohangi, kuyi. Masalan: Navha ohangi tuzib, ogoz qil mahzun surud, UI surud ichra hazin konglumga maxfiy roz tuz. Shu ma'nodagi yana bir soz savtdir. Lug'atda bu soz quyidagicha izohlanadi:

I. Tovush, ovoz; shovqin; ohang, kuy, maqom: savti jaras - qongiroq ovozi; savti alhon: 1. kuy, ohang. 2. Kuylash, sayrash (qush-bulbul haqida)

Chek navo, ey bulbuli gulzori shavq,

Savt-u alhoning kelib asrori shavq

Yuqoridagi izohdan kelib chiqib, savt sozi ham shakldoshdir deyish mumkin. Shuningdek, nagam sozi ham “kuy, soz” manolarida keladi: “Ulki korguzgay muloyim tarona-u nagam, agar eshituvchining hayoti, naqdi anga fido bolsa ne gam”. Yana zaxma sozi ham quyidagi ma’nolarni beradi: 1. Urish, zarb, chertish. 2. Yara, zaxm. 3. Cholgu (chunonchi tanbur)ni chertadigan asbob (noxun). 4. Cholgu kuyi “har muganniyki, dardomandonaroq nagma chekar, aning zaxmasi zaxmliq yurakka korgarroq tegar” Kuy, ohang ma’nosini beruvchi maqom sozi ham shakldosh hisoblanadi: 1. Joy, orin, turar joy. 2. Daraja, bosqich. 3. Musiqada asosiy kuy, ohang. Shu manodagi yana bir soz rost bolib, u Navoiy ijodida quyidagi manolarni beradi:

I.1. ong. 2. Togri, tik.

II. musiqa kuylaridan biri.

alhon, ilhon sozlari ham yoqimli ovozlar, ashulalar, xonishlar, sayrashlar kabi ma’nolarni anglatib, alhonnamoym va alhonsaro tarzida sayroqi, sayrovchi; ashulachi sozlariga togri keladi. Shu ma’nodagi yana bir shakldosh soz amaldir. Lugatda bu soz quyidagicha izohlanadi: I. Umid, istak, tilak, orzu. II. 1. Ish –harakat, ijro. 2. Mansab. III. Kuy, ashula, ohang. Amal ahli – kuy boglovchi; amal-u qavl - kuy-ohang: Arganing savti-yu noqus uni birla har yon, Yuz mugoni amal-u qavl ila gavgo erdi. Yana romish sozi ham Navoiy lirikasida ashula, musiqa manolarida kelib, romish aylamak – kuylamoq, musiqa chalmoq; romishiy – kuylovchi, cholguvchi deganidir:

Bir ohang ila aylagil romishe

Ki, yetgay manga bir dam oromishe.

Shunday qilib, Navoiy talqinida navo, nagma, tarona, surud, yir, qoshuq, chinga, ovoz, ayalgu, ohang, savt, nagam, zaxma, maqom, rost, alhon, amal, romish kabi sozlarning barchasi “kuy; qoshiq” sozlariga ma’nodosh bolib, ular ayni paytda shakldosh sozlardir. Bulardan kuy, yir, qoshuq, chinga, ayalgu so’zlari turkiy; nagma, savt, nagam, maqom, alhon, amal sozlari arabiyl; navo, tarona, surud, ovoz, ohang, zaxma, rost, romish sozlari forsiy tillarga mansubdir.

### **Xulosa**

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari uchun forsiy aruzshunoslar: Shams Qays Roziyining “Al-mo‘jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” hamda Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlari nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Agar olim forsiy salaflari Roziy va Tusiy risolalaridan umumiy tarzda foydalangan bo‘lsa, ustozи Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asari “Mezon ul-avzon” uchun tayanch manba vazifasini o’tagan. Aruzdagi eng kichik birliklar — juzvlar talqinida Alisher Navoiy ulug‘ salafi Shams Qays Roziy va ustozи Abdurahmon Jomiy yo‘lidan

borgan, Nasiruddin Tusiy risolasida keltirilgan fosila bilan bog‘liq ixtilofli masalalarga to‘xtalmagan. Shams Qays Roziy va Nasiruddin Tusiy risolalarida 10ta asl rukn haqida so‘z borgan bo‘lsa, Jomiy va Navoiyda asl ruknlardan faqat beshtasi tahlil qilingan. “Al-mo‘jam”da 35ta, “Me’yor ul-ash’or”da 34ta zihof, Jomiy va Navoiy risolalarida 45tadan zihofning keltirilishi ustoz va shogirdning ushbu masalada ham hamfikr bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. “Al-mo‘jam” va “Risolayi aruz”da an’anaviy 4ta doira, “Me’yor ul-ash’or”da 5ta doira keltirilgan bo‘lsa, “Mezon ul-avzon”da 7ta doira keltirilgan va ulardan “Doirayi mujtamia” olimning o‘z ixtirosidir. “Mezon ul-avzon”da vaznlar dalili uchun keltirilgan misollarning aksariyati shoirning o‘z ijod mahsuli ekanligi Alisher Navoiyning turkiy aruz nazariyasini amaliyot bilan teng olib borganligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Атоуллох, Ҳусайнин. 1981. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А. Рустамов таржимаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
2. Бакиров, М. Х. 1972. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автореф. дисс. на соискание... канд. филол наук. Казан.
3. Бобир, Заҳириддин Муҳаммад. 1971. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. Тошкент: Фан.
4. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 1990. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Тошкент: Юлдузча.
5. Буниятов, З. М. 1986. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). Москва: Наука.
6. Фролов, Д. В. 1991. Классический арабский стих. Москва: Наука, 1991.
7. Ҳожиаҳмедов, А. 2006. Навоий арузи нафосати. Тошкент: Фан.
8. Жомий, Абдураҳмон. 2014. Рисолаи аруз. Таржимон, шарҳ ва изоҳлар